

THE ROLE OF STOMA FORMATION IN THE MANAGEMENT OF BOWEL OBSTRUCTION IN RECTAL CANCER

Orifjonov Oltinbek Xojimurod Oybek ugli

1st-year Master's Student, Andija State Medical Institute

Abstract. Rectal cancer is often complicated by bowel obstruction, requiring urgent surgical intervention. In such cases, stoma formation plays an important role in providing intestinal decompression, reducing intoxication, and preparing the patient for subsequent radical surgery. This article analyzes the clinical effectiveness and advantages of stoma formation in rectal cancer complicated by bowel obstruction.

Keywords: rectal cancer, bowel obstruction, stoma, colostomy, obstructive bowel obstruction, surgical treatment.

TO'G'RI ICHAK SARATONIDA ICHAK TUTILISHINI BARTARAF ETISHDA STOMA QO'YISHNING O'RNI

Orifjonov Oltinbek-Xojimurod Oybek o'g'li

Andijon davlat tibbiyot instituti 1- kurs magistri

Annotatsiya. To'g'ri ichak saratoni ko'pincha ichak tutilishi bilan asoratlanib, bemorlarda shoshilinch jarrohlik aralashuvini talab qiladi. Bunday holatlarda stoma qo'yish ichak dekompressiyasini ta'minlash, intoksikatsiyani kamaytirish hamda bemorni keyingi radikal operatsiyaga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada ichak tutilishi bilan asoratlangan to'g'ri ichak saratonida stoma qo'yishning klinik samaradorligi va uning afzalliklari tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: to'g'ri ichak saratoni, ichak tutilishi, stoma, kolostoma, obturatsion ichak tutilishi, jarrohlik davolash.

To'g'ri ichak saratoni dunyo bo'yicha eng ko'p uchraydigan onkologik kasalliklardan biri hisoblanadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, kolorektal saraton onkologik kasalliklar orasida uchinchi o'rinda turadi va o'lim ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan kasalliklardan biri hisoblanadi. Bemorlarda kasallikning 15–30%

holatlarida obturatsion ichak tutilishi rivojlanadi. Bu esa shoshilinch jarrohlik yordamiga ehtiyoj tugʻdiradi.

Ichak tutilishi bilan kechgan toʻgʻri ichak saratonida asosiy muammolardan biri bemorning ogʻir umumiy holati, suv-elektrolit muvozanatining buzilishi va peritonit xavfining yuqoriligidir. Shu sababli bunday bemorlarda bir bosqichli radikal operatsiyalar har doim ham xavfsiz emas. Amaliyotda koʻpincha stoma qoʻyish usuli qoʻllaniladi.

Stoma qoʻyishning asosiy maqsadi ichak ichidagi bosimni kamaytirish, ichak dekompressiyasini taʼminlash va bemor holatini barqarorlashtirishdan iborat. Kolostoma qoʻyilgandan keyin intoksikatsiya kamayadi, ichak faoliyati tiklanadi hamda bemorni keyingi rejalashtirilgan operatsiyaga tayyorlash imkoniyati yaratiladi. Xalqaro tadqiqotlarga koʻra, ikki bosqichli jarrohlik taktikasida operatsiyadan keyingi asoratlar va letallik darajasi bir bosqichli shoshilinch operatsiyalarga nisbatan pastroq kuzatilgan. Soʻnggi yillarda chap yonlama yoki transversostoma qoʻyish usullari keng qoʻllanilmoqda. Ayniqsa, ogʻir somatik holatdagi bemorlarda stoma hayotni saqlab qoluvchi usul sifatida muhim oʻrin egallaydi. Bundan tashqari, stoma qoʻyish anastomoz yetishmovchiligi xavfini kamaytiradi va operatsiyadan keyingi davrni yengillashtiradi. Shunday qilib, ichak tutilishi bilan asoratlangan toʻgʻri ichak saratonida stoma qoʻyish samarali va xavfsiz jarrohlik usullaridan biri hisoblanadi. Ushbu usul bemor holatini yaxshilash, asoratlarni kamaytirish hamda keyingi radikal davolash bosqichiga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sung H. et al. Global Cancer Statistics 2023. CA Cancer J Clin. 2023.
2. Ansaloni L. et al. Guidelines in the management of obstructing colorectal cancer. World Journal of Emergency Surgery. 2022.
3. NCCN Clinical Practice Guidelines in Oncology: Rectal Cancer. Version 2024.
4. Pisano M. et al. Management of large bowel obstruction. World Journal of Gastroenterology. 2021.